

**BOYSUN–SHO‘RCHI GURUH SHEVALARINING DIALEKTAL  
XUSUSIYATLARI****Fayziyeva Xadicha Choriyevna,***Termiz davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi  
kafedrasi dotsenti, f.f.b.f.d (PhD)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek tilining turli viloyat shevalarida qo‘llaniladigan dialektal so‘zlar qiyosiy jihatdan o‘rganiladi. Boysun–Sho‘rchi guruh shevalarining leksik boyligi umumxalq o‘zbek tilining asosiy lug‘at fondi va umumiy lug‘at tarkibidagi so‘zlarni tashkil qiladi. Shu bilan birga ularda o‘ziga xos so‘zlar, atamalar ham mavjud bo‘lib, bunday so‘zlar adabiy til va uning ko‘pchilik shevalarida uchramaydi. Shevalar xalq tarixini yoritishda katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega va tarixiy grammatika hamda tarixiy leksikografiyasini yaratish uchun ham boy ma‘lumot beradi.

**Kalit so‘zlar:** sheva, leksik boylik, umumxalq o‘zbek tili, shevalar xalq tarixi, ilmiy-amaliy, grammatika, leksikografiya.

**Abstract.** This article studies the dialectal words used in various regional dialects of the Uzbek language in a comparative manner. The lexical wealth of the Boysun-Shurchi group dialects constitutes the main vocabulary of the national Uzbek language and the words in the general vocabulary. At the same time, they also contain their own words and terms, such words are not found in the literary language and most of its dialects. Dialects are of great scientific and practical importance in illuminating the history of the people and provide rich information for creating historical grammar and historical lexicography.

**Keywords:** dialect, lexical wealth, national Uzbek language, dialects, folk history, scientific and practical, grammar, lexicography.

**Аннотация.** В данной статье сравнительно изучаются диалектные слова, используемые в различных региональных диалектах узбекского языка. Лексическое богатство диалектов группы Бойсун–Шурчи составляет основную лексику национального узбекского языка и слова общего словаря. В то же время они содержат и свои собственные слова и термины, такие слова не встречаются в литературном языке и большинстве его диалектов. Диалекты имеют большое научное и практическое значение для освещения истории народа и предоставляют богатую информацию для создания исторической грамматики и исторической лексикографии.

**Ключевые слова:** диалект, лексическое богатство, национальный узбекский язык, диалекты, народная история, научно-практический, грамматика, лексикография.

**Kirish.** Boysun–Sho‘rchi guruh shevalari o‘zining xarakterli xususiyatlari bilan hozirgi o‘zbek adabiy tili va uning boshqa dialektlaridan farq qiladi. Bu guruh shevalarining lug‘at tarkibida boshqa o‘zbek shevalarida ishlatilmaydigan yoki juda kam miqdorda uchraydigan so‘z va terminlar mavjud.

Bu so‘zlarning ba‘zilari adabiy til va boshqa shevalardan ayrim fonetik jihatlari bilan farq qilsa, ayrimlari esa, talaffuzda bir xil bo‘lsa ham, tamoman boshqa ma‘nolarni bildiradi.

Boysun–Sho‘rchi guruh shevalarida ishlatiladigan so‘zlarning asosiy qismi umumturkiy leksik qatlamga oid va o‘zlashgan so‘zlardan iboratdir.

**Adabiyotlar tahlili.** Biz kuzatish olib borgan Boysun, Sho‘rchi, Qumqo‘rg‘on, Jarqo‘rg‘on tumanlari hududidagi o‘zbek shevalarida qadimgi turk va eski o‘zbek tillariga

xos ba'zi so'z-terminlarning ishlatilishi, bu shevalar o'zining lug'at tarkibida til tarixiga xos xususiyatlarni saqlab kelganligidan dalolat beradi. Qaysiki, shevaga xos so'zlar tarixiy yodgorlik bo'lib, ular bizgacha yetib kelgan tarixiy manbalarga nisbatan ham qadimiyroq bo'lishi mumkin.

Boysun–Sho'rchi guruh shevalarining leksik xususiyatlari alohida tadqiqot ob'ekti bo'lmagan. Lekin dialektolog S.Rahimovning "O'zbek tili Surxondaryo shevalari" monografiyasida Surxondaryo shevalarining ayrim leksik xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi.

Boysun–Sho'rchi guruh shevalari leksikasida shunday so'zlar borki, ularni mumtoz adabiyot asarlarida uchraydigan so'zlar bilan qiyoslab o'rganish hozirgi adabiy tilimizdagi ko'pgina izohtalab masalalarga aniqlik kiritishda katta ahamiyat kasb etadi.

Boysun–Sho'rchi guruh shevalarining leksik boyligi umumxalq o'zbek tilining asosiy lug'at fondi va umumiy lug'at tarkibidagi so'zlarni tashkil qiladi. Shu bilan birga ularda o'ziga xos so'zlar, atamalar ham mavjud bo'lib, bunday so'zlar adabiy til va uning ko'pchilik shevalarida uchramaydi.

K.K.Yudaxin "Tillar o'rtasidagi aloqa hammadan ilgari va hammadan ko'proq ularning leksikasida aks etadi", – degan edi. O'zbek tili leksik tarkibining asosiy qismini tashkil etuvchi so'zlar o'zbek shevalari va o'zbek adabiy tili leksik tarkibining ham asosiy qismini tashkil etadi.

Shevalar xalq tarixini yoritishda katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega va tarixiy grammatika hamda tarixiy leksikografiyasini yaratish uchun ham boy ma'lumot beradi.

Bunday tarixiy so'zlarning qiyosiy tahlili o'zbek tilining tarixiy leksikologiyasini o'rganishda yetakchi manba bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda dialektologik kuzatish, qiyosiy-tarixiy hamda leksik-semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. Boysun–Sho'rchi guruh shevalariga oid til materiallari dala tadqiqotlari, jonli nutq namunalari, yozma manbalar va tarixiy lug'atlar asosida to'planib, ularning fonetik, semantik va etimologik xususiyatlari boshqa o'zbek shevalari hamda turkiy tillar materiallari bilan qiyosiy jihatdan o'rganildi. Shuningdek, shevalarda saqlanib qolgan arxaik birliklarning tarixiy taraqqiyoti va adabiy til bilan munosabati lingvistik tahlil asosida yoritildi.

**Tahlillar va natijalar.** Boysun–Sho'rchi guruh shevalarida ilgari vaqtlarda umumxalq o'zbek tilining leksikasida keng – faol qo'llanilib, davrlar o'tishi bilan kam – passiv ishlatiladigan bo'lib qolgan yoki hozirgi adabiy tilimizda ishlatilmay ayrim turkiy tillar, uning shevalari va yozma yodgorliklardagina uchraydigan bir qator so'zlar mavjud.

Biz o'rganayotgan shevalarning leksikasi boshqa shevalar va adabiy tilda uchramaydigan, faqat shu shevaning o'zigagina xos bo'lgan so'z hamda iboralardan iborat. Ularni hozirgi adabiy tilidagi so'zlar, yozma yodgorliklar tili, boshqa turkiy tillar va dialektlar bilan qiyoslab, ma'nolarini tahlilga tortdik.

**üjrum** (Boy., Sho‘r.) – 1. suv aylanasi, girdob; 2. mollar podasi; 3. “oziq-ovqat” ma’nosida, bir uyrum yupqa (tayyorlangan yupqalarning bir uyumi yoki dastasi). Qiyoslang, DLT **egrim** – suv to‘plangan joy (1,139); NALda **igrim** – uyrum, girdob, suvning aylanib oqishi, suv aylanmasi deb izohlangan (263);

Solishtiring, Navoiyda:

*Har ildamlıkda sarsardek ravona,*

*Ham aylanmakda igrimdin nishona* (“Farhod va Shirin”);

*...Har igrim yuz aqlu xush kelmasin somurg‘an* (“Mahbubul qulub”)

**men** (Chor.) – katta qora xol. Agar tug‘ilgan chaqaloqlarda katta qora xol bo‘lsa ismlarini ham shu tarzda ataydi, o‘g‘il bo‘lsa Menli, Menqora; qiz bo‘lsa Menlixal, Menqana deb ism qo‘yishadi: Menqibaj žezza traxtir hajdajdi. Sol., Xorazmiyning “Muhabbatnoma”sida:

*Aningkim ol enkinda meng yaratti,*

*Bo‘yi birla sochini teng yaratti* va b.

NALda **meng** – xol; katta qop-qora xol:

*Turfaroq bukım, saodat subhida chiqmish degay.*

*Tiyra baxtim axtari kim ko‘rsa ul eng uzra meng* (388);

Boburda: *Engi mengi oyu, dog‘i yuzi so‘zi gulu mul,*

*Qadi ravonu tani joni erni marjondur.*

Turkman tilida **men** – 1. xol: gizing yuzunde mengi ba; 2. nasha (gashish). Yana solishtiring: **menli**: – 1. xoldor: Eli mengli ishe yakin, agzi mengli asha yakin (TmRsl., 448 – 449).

Hozirgi tatar tilida ham **miñ** (rodinka, rodimoe pyatno), **miñle** (s rodinkoy, imeyuyiy rodinku) tarzida qo‘llanadi (Trsl., 374).

**azmax** (Kof.) – yo‘ldan adashmoq, yomon yo‘lga kirmoq, buzilmoq: Zamānāni azgāni attān yešāk ozgāni. Sol., DLTda yol azildi – *yo‘ldan adashildi* (1, 204).

**doli**://**žalä** (Ink.,Chor.,Pad.) – do‘l (grad): Kečasi: **doli**:// ža::up jegi:nnardi ‘uri:b ketti:. Sol., DLT: **toli**: – osmondagi yog‘adigan jala, do‘l (DLT, III, 251): Abu Hayyomda **toli**: – do‘l, žala; 2) tegirmonchilikka doir termin. Buni ozarbayjon tilining Balakən shevasida tegirmonchilik termini sifatida **doli**: deyiladi. (DI,197); Qipchoq-qoraqalpoq shevalarida **qampa**//**xampa** tarzida talaffuz etiladi; ozarbayjon tilining Baku, Janubiy Ozarbayjon, Şamaxı-Salyan, Kirovobod, Ordubad shevalarida “dol” so‘zi yog‘och yoki teridan qilingan cho‘mich, yog‘log‘i (cherpalka) ma’nosida qo‘llanadi (DI., 196-197).

Qozoq tilining janubiy dialektida **doli**: – jala; g‘arbiy dialektida **doli**– quduqlarni tozalash uchun ishlatiladigan teri – qop (mesh); Shimoliy Sharq dialektida **doli**: – tuturiqsiz, betayin; Buxoro dialektida **dolča** – hovuzdan meshga suv soluvchi charm idish; O‘zbek tilining o‘g‘uz shevalarida **dölä** – xom teridan ishlangan yog‘ idishi; Qoraqalpoq

tilining Janubiy dialektida **dälji**:– teri va yog‘ochdan yasalgan, quduqdan suv olish uchun qo‘llanadigan buyum (Qtqdl, 219).

**alqi:ndi://alqundi:** (Sho‘r., Boy.) – ishlatilib tugab kichik bo‘lib qolgan sovun. Sol., qipchoq shevalarida **alqundi:**: Toshkent shevasida **älqindi** (O‘zXSH, 210); Qo‘yi Qashqadaryo shevalarida **älkändi//älqindi** (O‘qsh, 206); Urxun-Enasoy yodgorligida **alkyn** – kuchsizlanish, kamayish (EIT,357), DLT **är alkı:ndi** – odam o‘ldi; qadimgi uyg‘ur tilida **alqin** – tugash, yo‘qolish; qirg‘iz tilida **alqi:ndi:** – sovun yoki yog‘ qoldig‘i **alqi:ndi** so‘zi <alq + -i + -n + -di > *olqindi* shaklida hosil bo‘lgan.

**kaläs//kältakesäk//kasartki//kesartki** (Sho‘r., Boy., Jar.)//**kasartki** (Qum.) – kaltakesak: jeski čalduvällärdä kaläs kop boladi. Sol., DLT **kelar** – kaltakesak, “Tarjumon”da **kälöz**, ozarbayjon tilida **kälöz** – echkiemar, kaltakesak turi, Vorzob shevasida **kelas** – kaltakesak turi, yoqut tilida **kügäri, külbäri** – kaltakesak.

Bulardan **kügäri:, külbäri:**– *kaltakesak* so‘zining variantlari teleut, shor tillarida qo‘llanuvchi tusi o‘zgarib turuvchi **kul** so‘ziga va sariq – bo‘zrang ma‘nosidagi **kula** so‘ziga aloqador bo‘lsa kerak. Chunki cho‘l kaltakesagining bir turi doim tusini o‘zgartirib turadi va ko‘pchilik kaltakesaklar sariq – bo‘z, bo‘z rangda bo‘ladi.

Fikrimizni isbotlash uchun “Devoni lug‘otit turk”dagi **kul(ä)** va **kulär** (1, 149, 4, Rdl., II, I, 1967) – **kul** (zola) va “shishuvchi” ma‘nosidagi so‘zlarni keltirishimiz mumkin. Qaysiki, cho‘l kaltakesagi va echkiemar kishini ko‘rishi bilan qorinlarini shishirib, vashillagan ovoz chiqarib, tusini o‘zgartirib yuborsa, o‘sha kaltakesaklarning turini **buqalamun** (xameleon) deb ham yuritiladi.

**kaläs (käläs), kälöz, keläs, kelär** so‘z variantlarining o‘zgarishi taxminan quyidagicha bo‘lgan: **kalar > kelar > kalas > kaläs > kalaz.**

**put** (Jar.) – 1. son: Mässi ki:jär puti:ya, häki:m bolar žurti:ya; 2. pud (og‘irlik o‘lchovi) Bir pud malding žā:i. Sol., DLT da **but** (put) – son; oyoq (bedro, lyajka, noga): Qarya qazqa ötgünsä buti: si:nur – *g‘ozga taqlid qilgan qarg‘aning oyog‘i sinadi* (Dts, 129). Andijon shevasida: öz ujimi küšligi, qolu **putumi** bošligi(O‘zXShL, 223): O‘TILda dialektal so‘z tarzida berilgan. 1) oyoq. *Laylakning yurishini qilaman deb chittakning puti yirtilibdi*; 2) ikki oyoq oralig‘i. *Ukkining oyoqlarini biriktirib bog‘lab, boshini putiga qistirgan* (G‘.G‘ulom, Soyalar).

**kömmä//kömač//komäč** (Bog‘., Pad., Chor., Mach.) – o‘choqda, tandirda cho‘qqa ko‘mib pishirilgan non. Sol., DLTda **kömač** – o‘choqda cho‘qqa ko‘mib pishiriladigan non; NALda **ko‘moch** – qo‘rga ko‘mib pishirilgan non: ko‘mochdon – ko‘moch pishiriladigan o‘choq (NAL: 326); o‘g‘uz shevalarida **köma** 1) qozonda pishiriladigan non (odatda jo‘xori unidan bo‘ladi); 2) chig‘iriqning katta g‘ildiragini aylantiradigan kichik g‘ildirak, shesterna (NAL: 148).

Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalarida **kömač** esk. chig‘irning katta va kichik tishli g‘ildiraklari (Qo‘sh., 121).

Alisher Navoiy **mach** (-ma+-ch) bilan yasalgan **tutmach**, **umach**, **ko'mach** kabi so'zlar haqida ma'lumot berar ekan, bu so'zlar eski o'zbek tilidan tojik-fors tiliga ham o'tib, o'zlashganini ko'rsatgan; O'TILda: 1. *Ko'chib ketar vaqtida Zebo Yozi kelsa yer deb, bir oz unni ko'moch qilib, qo'rga ko'mib ketgan ekan.* ("Yozi bilan Zebo") 2. O'z **ko'mochiga** kul tortmoq – "o'z manfaati uchun ishlamoq, o'ziga-o'zi qayg'urmoq" ma'nosidagi ibora ham mavjud (NAL: 415).

Yuqorida keltirilgan so'zlardan tashqari, Boysun–Sho'rchi guruh shevalarida qadimgi turk, eski turk va eski o'zbek tili yodgorliklarida qo'llangan anchagina so'zlar uchrashi kuzatiladi. Bu so'zlar ba'zi fonetik va semantik o'zgarishlarni hisobga olmaganda, asosan, mos keladi (1-jadval).

1-jadval

Boysun–Sho'rchi guruh shevalari	Urxun-Enasoy yodgorliklari	Ad. orf.
boz	böz (Pam, 373)	bo'z (rang)
qut	qut (Pam, 415)	baxt, baraka
tävuşqan	tabi:şyan (Pam., 425)	quyon
žuqa, juqa	jujqa (Pam., 62)	yuqa
jegäči	ägäč (YePT., 41.)	egachi, opa
<b>QBN</b>		
tüzü: //tüzük	tuzuk	tuzuk
uq	uq	uqmoq
Ži:t // jit	jit	yo'q bo'lmoq
qī:lī:q	qī:lī:q	qiliq, xarakter
<b>DLT</b>		
qut	qut	baxt, baraka
ajaq	ajaq // azaq (I, 96, 112)	oyoq
quvürmäč	qoyurmač(I, 454)	qovirmoch
pačaq	pučuq (I, 358)	puchuq, pachaq narsa, ezilgan
tülläk	tüläk (I, 403)	yungini to'kkan hayvon
mäji:šti:	majušti: (III, 206)	egildi, yopishdi
tor	tör (III, 133)	uy turi
qorländi	qorlandi: (III, 214)	achidi, yetildi(bu so'z qıymız, mysälläs va bozə kabi ichimliklarga nisbatan qo'llanadi: bozə qorländi, qī:mī:z qorlandi, müsälläs qorländi)

1-jadval. Boysun–Sho'rchi guruh shevalarida qadimgi turk, eski turk va eski o'zbek tili yodgorliklarida qo'llangan so'zlar

**či:näčaq** (Boy., Kof.) – jimjiloq. Nam. čimčäläk//činčilāq; And. čimčäläk, čināqaj, činčäläk. Xakas tilining Qizil dialektida čümälčäk; qadimgi qipchoq yodgorliklarida čī:člaq; "Tarjumon"da čī:čälak.

**qu:** (Xo'j.) – 1. oqarmoq, sariq, bo'z rangga kirmoq: rāñī:: qu bop ketti – ranggi oqarib ketdi ; 2) ajjār (rus. *xitraya*); qu: kampir, qu: bola; 3) quvmoq; Sol., qu//quvala; 4)

kuchaytiruv va ta'kid yuklamasi ad.orf. -ku. Bu guruh shevalarda ko'p qo'llanadi. bārmād'-qu, kemadi-qu. Bundan tashqari, Xo'jabulg'on qishloqlarida **qu** – **quji:n** shakli ham ishlatiladi: barmadi – quji:n, i:šlāmādi – qu ji:n kabi. Sol., DLT. qug'u – 1. lebed (III, 225): jer quyu qušqa soqušmī:š – *er oqqush bilan uchrashdi (muj povstrechalsya s lebedem)*; Quyu quš uči: qōliṅā qonmaz – *Oqqush o'z ko'liga qo'nmay uchib ketdi (Lebed uletel, ne opustilsya na svoe ozere)*; 2) ko'chma ma'noda *oqargan sāč*: quyu qondi: bašqa – *boshimga oqqush qo'ndi (QBN – DTS, 464)*.

Yuqorida ko'rsatilgan misollardan ko'rinadiki, Boysun–Sho'rchi guruh shevalarining lug'at tarkibida ko'p asrlik so'zlar, leksik qatlamlar, har xil tarixiy manbalarga oid so'zlar saqlanib qolgan.

Boysun–Sho'rchi guruh shevalari lug'at tarkibida eski o'zbek adabiy tilida keng qo'llanib, hozirgi o'zbek adabiy tilida kam ishlatiladigan yoki butunlay ishlatilmaydigan bo'lib qolgan. Ba'zan fonetik jihatdan farqlanuvchi va ma'nolarida o'zgarish bo'lgan ko'pgina tarixiy so'zlar, arxaik elementlar uchraydi: **adāq** – oxir, so'ng, oyoq; *Jalolov gugurt cho'pi bilan tishini kovlab, bog'ning odog'iga qarab turardi.* (Sh.X., Hayot abadiy); **almut** // **almurut**// **nāšbōti**: – nok. **ataxān**, **atābek** – (eski o'zbek tilida ota o'rnini tutgan kishi, otaxon, tarbiyachi, ustoz) – er kishilar ismi. **Ahmar** (ar. *qizil*) – er kak va ayollar ismi; **bākāvūl** (eski o'zbek tilida xon dasturxonchisi, bosh oshpaz) – to'ylarda ta'minot boshlig'i, oshpaz; **bāši:r** (ar. *xushxabar keltiruvchi*) – erkaklar ismi; **žaryunčaq** – qo'l tegirmoni; **tōlān** – otning yoshiga ko'ra nomi (< besh yashar ot); **qudra** (<toj. xudro') – o'zicha o'sgan, yovvoyi, ildizdan chiqqan: qudra tol, qudra gul; **xotik** (<xuduk) – xo'tik, eshakning bolasi; **yor tabaq** – o'rik daraxtidan ishlangan kosa.

**ji:t** (Xat.)//**it** (Lay.) – 1) yo'q bo'lish: Qiyos., uyg'. **jitmāk**, **žitmāk** – yo'qolmoq (Ursl., 77); Xor. **jitmāk** – yo'q bo'lmoq, yo'qolmoq (O'zShL, 90); YuQShda **it** – 1) yitmoq, yo'qolmoq; 2) yirtmāq (YuQSh, 214); DLTda **jitti nāṅ**– *narsa yitdi, yoq boldi* (II, 263); ol at jitiklādi – *u yo'qolgan otni qidirdi* (III, 355); “Tavsir”da **jit** – yo'qotilmoq: qorquzmaduqunuz (?) üçün ol kim jitti sizdin (154); XIU asr Xorazm yozuv yodgorliklarida **ji:t** – halok bo'lmoq: *talim bašlar ol uruš bila jitti* (SYa, 525); “Attuhfa”da **jitti** – yo'q bo'ldi (204); RDLda **ji:t** – yo'q bo'lmoq, halok bo'lmoq; **ji:ti:k** – yo'qolgan, nobud bo'lgan narsa; **jitir** – yo'qotirmoq, halok qilmoq (Rdl, III, 542-525); Navoiyda **jitirguvči** – yo'q qiluvchi: *Bu zolimlar mulkni barbod berguchilardir va mulk ahli yag'ishtirg'onlarni yitirguchilardur* (“Mahbubul qulub”, 22).

paši:kästā//ājäl//zājipā – ayol, xotin, oila. Sol., qq. **ājäl** – ayol (Qtds, 53); uyg'. **ajal** – xotin (YaUFD ,1,166); qirg'. **ajal**, **kati:n**, **zaji:p** (Rks, 188); turkm. **ajal** (Rtms, 165); tat. **xati:n** (Rts, 1, 281). Nam. **ājäl** – yosh bola, go'dak: On nučta ajalli dedasi bosajam jeqil kirma:jdi – *o'n uchta bolaning otasi bo'lsa ham aqli kirmaydi* (O'TAM, 5, 1948). Toshkent shevasi va uyg'ur tilida bola-chaqasi ko'p erkaklarga nisbatan **ājälmän**,

**ajalman** soʻzi ishlatiladi. Qiyoslang: *Ayolmand odam ishlamay tura olmas ekan* (Gʻ.Gʻulom, Tirilgan murda).

Oʻzbek shevalarida “**äjälsiz** (yoš bäläsiz) xätin sümäkkä tojmäs” maqoli (“mälparast” maʼnosida) keng qoʻllaniladi.

Umuman, **äjäl** soʻzi arabcha عيال – ayol va عيلة – oila soʻzlariga aloqadordir. Masalan, **oilä//bola** – **čaqa** kabi.

**žesir äjäl//tül** – eri oʻlgan ayol. Sol., qq. **jesir hayal** –ersiz ayol (Qtds, 133); qq. **tul//tulyatī:n** (Qtdm, 83); turkm. **dul ajal** (Rtms, 58); qirgʻ. **žesir ajal** (Rqs, 67); tat. **tol xatī:n** (Rts ,1,53).

**xaltäköti:** (Chor.), **kenžä** (Boy., Shoʻr., Qum., Jar.) // **surpä qaqtī:** (Boy., Ink., Pad., Shoʻr.) – eng kichik, kenja farzand. Sol., Rdl, **kenže** (II, 1082); esk. oʻzb. كنجہ – kichik qiz, kenja qiz (Rdl, II, 1082); qq. **kenže**; qirgʻ. **kenže**, eņ kičüü (bala) (Rks, 613); turkm. **körpe, sonki: čaga** (Rtms, 542); qoz. **kenže** (Qttts, 1, 287); tat. **song i: bala, töpček bala** (Rts, 3, 201); qq. (Xoʻj.) **tuvädäk** – kenja bola (Qoʻsh, 161).

**nusxa//qursaq** (Boy., Shoʻr.) – otasi oʻlganda onasining qornida qolgan yetim bola, agar qiz tugʻilsa ismini Nusxa, Misqol qoʻyadi. Sol., “Shajarai turk”da qursoq(γ) – qorin: *qari kishi issiq kunda ot chopgʻonda qursogʻi ogʻrib turur...*, Navoiyda: *Bahr arodur maskani boʻlgʻoy baligʻning qursogʻi*.

**i:järtmä//i:järčän** (Boy.) – oʻgay bola: Xotin kishi ikkinchi marta turmushga chiqsa, birinchi eridan boʻlgan bolasi bilan borishi (**ijärtmä** > “ergashib kelgan” maʼnosida). Qiyos., Qoraqolpogʻistonning Xoʻjayli, Beruniy, Mangʻit shevalarida **i:jarčang** (Qoʻsh, 109).

**böksä//böksäk** (S-D) – 1. gavdaning bel bilan son oʻrtasidagi qismi; 2. chaqaloq beshigidagi **böksägä** qoʻyiladigan toʻrtburchak shaklidagi kichkina-kichkina ikki dona paxtalik buyum. OʻTILda ham shu maʼnoda berilgan: **boʻksa** (160).

**kañši:ri:k** (Chor.) – qanshar (burunning oʻrtasidagi yuqori qismi). Sol., **kañsirik** (Rdl, II, 1072); turkm, **señrik** (Rtms, 474); qq, **kāñširik** (Qoʻsh, 119); qirgʻ. **kajki:sī:** (Rks, 542); OʻTILda **qanšar** (551).

**i:č//ič** (Boy.) – 1. “qorin” maʼnosida; 2. narsa – buyumning ichki tomoni. Sol., qad. چ (DLT, I, 71); **i:č** (Mlv, I, 379); esk. oʻzb. چ (Bl, 125); **i:č** (“Tafsir”, 127); qoz. qq. **iš**; uygʻ. turk. ozar. **ič**; turkm. **ič**(TDS, 345).

**urt** (Boy., Shoʻr.) – bet-yuzning pastki qismi, lunj. Ogʻizning lab uchiga tutashgan joyi, ogʻizning ichki tomoni: Sol., olt. **urt** (Rdl, I, 1670); qoz. qq. **urt**; qirgʻ. **uurt** (Yudaxin, 545); turkm. **ovurt** (TDS, 479).

**sī:ryali:k** (Chor.,Kof.) – quloqning pastki qismidagi yumshoq joyi – isirgʻa, zirak osadigan joyi (r. mochka). Qiyos., qq. **sī:ryali:q** – quloqning isirgʻa taqiladigan teshigi (Qoʻsh, 154).

**qořavuč//qoři:γi:č** (Jar., Boy.) – juft hovuch. Sol., esk. o‘zb. اووچ (Bl. 82); qoz. **uos**; qq. **auř**; turk. ozar. **avuč**; qirg‘. **uuč** (Yudaxin, 545); turkm. **ovuč** (TDS, 479); qq. **qosuoi:s**; xor. **avič** (O‘zShL, 56); **jakka hovuč** bu guruh shevalarda **taqa** deyiladi.

**qabati:** (Boy., Sho‘r., Jar., Qum.) – yoni. *Qabatimda djurgin*. Qiyos., Xorazmiyning “Muhabbatnoma”sida: *Tilarmenkim bizing til birla paydo, Kitobe aylasang bu qish qotimda*. Sam. **qabati** – “yoni” ma’nosida (SamDU, 319, 59); qashq. **qavät** – yon (O‘zShL, 277).

**čäränä** (Boy., Sho‘r., Qum.) – qo‘zi, uloq, buzoq tug‘ilganda badaniga yopishgan shilimshiq modda. Qo‘y, echki, sigir bolasining ustidagi o‘sha charana (choroyna)ni yalab oladi, agar yalamasa bolasiga qaramay, emizmay ketadi.

**či:naq//püččä**(Boy., Sho‘r., Jar., Qum.) – 1. qulog‘i kemptik odam: yundä **püččä** minäm ‘öyigä ketti (Omonx.); 2. qulog‘i kichkina echki; chinaq yechki; 3. yomon odam: Halim ölgı:ndäj činaqda hämmä gäpti šo bāšlädi(Sar.); Qiyos., qq. **čunaq** – qulog‘i kesilgan odam (QtDs, 324; Qtqdl, 77); qirg‘. **čunaq** (Rkrs, 42); tat. **ber kulogli** (Rtts, II, 365); **ber qolakli:** (Rtts, II, 366).

**určuuq** (Boy.) – 1. sonning dumg‘azaga qo‘shilgan joyi: Keča ali:šdä Rävšändi určuyi: či:γi:p ketipti. Qiyos., qq. **určuuq** (To‘rtk., Ber., Qang‘., Xo‘j.) ko‘chma m. **topi:q** (Qo‘sh, 163); 2. uy-ro‘zg‘or buyumi. Bi:ji:l určuuq i:i:ri:p kuni:m otti, gi:lām qi:lamän deb (Sarq.).

**üča** (Boy., Sho‘r., Jar., Qum.) – orqa, dumg‘aza. **üča** so‘zi eski o‘zbek tilida “orqa va biqin go‘shti” ma’nolarida ishlatilgan. DLTda **üča** – orqa Navoiyda: *Odil podshoh ko‘zgu va aning uchasidir* (“Mahbub ul-qulub”). Bu jumlada *uchasidir* so‘zi “orqasidir”, “teskarisidir” ma’nosida (*Odil podshoh oynakning beti bo‘lsa, zolim podshoh uning orqasi*). “Muqaddimatul adab”da **üča** – yelka; uchasi kuchluk, yelkasi – kuchluk. Qirg‘. **üča** – orqa, dumg‘aza; uyg‘. **üča** 1. orqa va yelka; 2. palto va pijak orqasi. Olt. **üča** – orqa, dumg‘aza; Tuva. **üča** – 1) dumba; 2) hayvonlarning orqa qismi; turkm. **uža** – baland; xor. **üča** – orqa, dumg‘aza. V.V.Radlov lug‘atida **üča** so‘zining **i:ža**, **uya** tarzida qo‘llovchi dialektlari ko‘rsatilgan.

**jergäř** (Boy., Besh.) – yosh bolalarning sochini olganda orqa yoki old tomonida maxsus qoldiriladigan kokil (*ukatortar*). Bu narsa shu boladan keyin ham yana farzand (uning ukasi) tug‘ilsin, degan tilakni bildiradi. Akasining yoki opasining orqasidan ukasi bo‘lsin, “ergashsin” degan niyatda qo‘yilgani uchun ham, bu kokil “**ergäř**” deb yuritiladi. Qiyos., Qashq. ergař (O‘zShL, 275).

**xarpänžä** (Boy., Sho‘r., Jar., Qum.) – ikki qo‘l barmoqlarini bir-birining orasiga kiritib, qo‘shaloq musht qilish odati. Agar kim xarpanja qilsa ishi yurishmaydi, baxti bog‘lanadi, degan irim bor.

rilib, latta botirib olinadi-da, keyin o‘rab bog‘lanadi). Sol., Sam. **želinqap** (SamDU, 55).

**masli:q** (Boy.) – harom o‘lgan mol va uning go‘shti: **masli:qqa** tojgän i:ttäj.

**šavulāq** (S-D) – to‘yga olib boriladigan uloq. Qiz (kelin)ga fотиha to‘y olib kelayotgan vaqtda mollardan tashqari, bitta uloq ham alohida olinadi. Mashina to‘xtagandan keyin bir kishi mashinaning ustiga chiqib o‘sha uloqni olishi kerak, bu uning haqi, ya‘ni **šavulāq** bo‘ladi.

**küllli:kläš**(Boy., Sho‘r.) – molning to‘rt oyog‘ini bir yerga juft qilib bog‘lash: *Beixtiyor ot tizgini bilan uning oyoqlarini kulliklab, bilagiga soldi* (Sh.X., Og‘ir tosh ko‘chsa). aldın külli:klä keji:n žüni:ni qi:rqaşan (Jin.). Qiyos., tojik tilida **kulāla**; Toshkent shevasida i:čip kulälä bop jāti:pti: – *ichib mast (g‘ujanak) bo‘lib yotibdi*; yana qiyoslang, **kulčä**– kichkina non, kulcha: nān pi:škunčä kulčä kuji:p ketādi. Boysun shevasida “kulälä” deb ko‘mirning kuliga mol tezagidan va suv solib aralashtirib dumaloq qilib qishda pechkaga yoqish uchun tayyorlangan yoqilg‘i.

**üjāz** (Boy.) – to‘da, mollarga nisbatan aytiladigan so‘z: mallār hali üjāzlāp žātī:pti (Kof.).

**qoşaxlaš** (Boy., Sho‘r.) – 4-5 qo‘y, qo‘zini birga qo‘shib bog‘lash.

**kögännäš**(Boy.) – uloq-qo‘zilarni ko‘ganlab bog‘lab qo‘yish: *Ularni ikki qoziqqa uchlaridan bog‘langan ipdagi halqachalarga boshini solib, ya‘ni ko‘ganlab yurardim* (Sh.X., Og‘ir tosh ko‘chsa).

**qotān** (Boy.) – yalangdagi mol yotadigan joy.

**käčär//qora** (Boy.) – usti yarim bekitilgan qishki mol yotadigan joy.

**jeŋaraq** (Boy.) – qo‘raning eshigi. *Engarakni ochib kirdi* (Sh.X., Og‘ir tosh ko‘chsa).

**küjāk** (Boy., Chor., Pad., Sarq., Ink., Kof., Mun., Omon., Jin.)// **köhäk** (Mach.) – mollarni erta qochirmaslik uchun qo‘chqorning beliga bog‘lab qo‘yiladigan kigiz, latta. Qiyos., **kohak** f.-toj. tilida **kuh** – tog‘; o‘zb -**ak** kichraytirish affiksi – to‘yča (to‘siq). Esk. o‘zb. كوهك Bu so‘z Yangiqo‘rg‘onda **toşliq**; Haqqulobod va G‘allaorol shevasida **kuijak**; Olabuqa qishlog‘ida **kuijak**; Toshbuloqda **qantarma**; Uychida **tosqāq**; Namangan viloyatining Uchtepa va Xo‘jaobod qishloqlarida **tuiştik**; Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalarida **küjāk** (Qo‘sh,122).

Umumxalq o‘zbek tili va mahalliy hududiy dialektlar o‘rtasidagi munosabatni belgilashda shevalar lug‘at xususiyatlarini qiyosiy rejada o‘rganish tilshunoslikda muhim va dolzarb muammolardan hisoblanadi.

O‘zbek shevalari fonetik va grammatik jihatdan ancha durust o‘rganilgan bo‘lsa ham, biroq uning leksikasi birmuncha kam o‘rganilgan.

Shevalarda yozma yodgorlik va hozirgi adabiy tilimizda mavjud bo‘lmagan so‘z va iboralar uchraydi. Shuning uchun ham taniqli turkiyshunos olimlar V.V.Radlov, M.P.Melioranskiy, Ye.D.Polivanov, A.K.Borovkov, K.K.Yudaxin kabilar shevalar leksikasini o‘rganishga alohida ahamiyat berganlar.

**Xulosa.** Ma'lumki, muhim aloqa quroli bo'lgan til ijtimoiy hodisa sifatida, kishilarning turli faoliyat sohalari bilan bog'langan. Tilning lug'at boyligi jamiyat taraqqiyoti natijasida o'sib, rivojlanib boraveradi.

Yuqoridagi farqlarning paydo bo'lishini shevalararo aloqaning uzilib qolishi, o'sha shevada so'zlashuvchilarning o'ziga xos yashash sharoitlarining natijasidir, deb izohlash mumkin.

Shunday qilib, Boysun–Sho'rchi guruh shevalari leksikasi o'zining tarkibi va xarakteriga ko'ra boshqa o'zbek shevalar lug'at xususiyatlaridan ajralib turadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мелиоранский П. М. Араб-филолог о турецком языке. – СПб, 1900. – С. 2.
2. Раҳимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари. (Фонетика, лексика). – Тошкент: Фан, 1985.
3. Юдахин К. К. Вклад в таджиковедение. Труды института языка и литературы АН Кирг. ССР. Вып. VI. – Фрунзе, 1956. – С. 159.
4. Аманжолов С.А. Вопросы диалектологии и истории казахского языка. - Алма-Ата, 1959. – С. 183.
5. Мирзаев М. М. Ўзбек тилининг Бухоро группа шевалари. – Тошкент, 1969. – Б. 116.
6. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. А-З. Э.И.Фозилов таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1983.
7. Алиев А. Ўзлаштирилган сўзлар. “Тилшунослик масалалари” ТошДУ илмий асарлар тўплами, II қисм, 501. – Тошкент, 1976.
8. Айларов А. Қозоқ тили Томди шевасининг лексик хусусиятлари ҳақида. ТДПИ. Илмий асарлар, 1-китоб. – Тошкент. 1963. – Б. 79.
9. Шоабдурахмонов Ш. Таянч шаҳар шевалари лексикасидан. ЎзДМ, II. – Тошкент, 1960.

#### SHARTLI QISQARTMALAR

1. DLT – Mahmud Koshg'ariy “Devonu lug'otit turk” I-II-III tomlar (Mutallibov S. tarjima qilgan). – Toshkent, 1960-1963.
2. DL – Azərbəyjan dilinin dialektologiyəsi lug'əti. – Bakı, 1964.
3. Sya – Fazilov E. Star o'zbekskiy yazyk. – Toshkent, 1966–1967, T. I, II.
4. SamDU – O'zbek tili grammatikasi, dialektologiyasi va leksikologiyasi masalalari (SamDU asarlari). – Samarqand, 1977.
5. SR – Rahimov S. O'zbek tili Surxondaryo shevalari (Fonetika, leksika), – Toshkent: Fan, 1985.– B.95.
6. Tafsir – Leksika sredneaziatskogo tefsira XII-XIII v v. – M., 1963.
7. TDS – Turkmen diliniñ sözlügi.– Ashgabat, 1962 .
8. Trsl – Tadjiksko-russkiy slovar.– M., 1954 .
9. Mlv – Malov S.ye. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti. – M.– L., 1952.
- 10.Rdl – Radlov V.V. Opyt slovaryu tyurkskix narechiy. – SPb, I-IV, 1893 –1911 gg.
- 11.Rkazs – Russko-kazaxskiy slovar. – M., 1954.
- 12.Rtmc – Russko-turkmenskiy slovar. – M., 1931.
- 13.RTS – Russko-tatarskiy slovar. – M., 1954.

- 14.NAL – Navoiy asarlari lug‘ati. – Toshkent, 1972.
- 15.O‘zXShL – O‘zbek xalq shevalari lug‘ati.– Toshkent, 1971.
- 16.Qtdm – Begjanov T. Qaraqalpoq tili dialektologiyasinning mas‘alalari. –
- 17.Nokis: Qaraqalpaqstan, 1971.
- 18.Qo‘sh – Ishaev A. Qoraqalpoq‘istondagi o‘zbek shevalari. – Toshkent, 1977.
- 19.Qtdl – Dospanov O. Qaraqalpoq tili qubla dialektining leksikasi. – Nokis:
- 20.Qaraqalpaqstan, 1977.
- 21.Ртмс– Русско-туркменский словарь,М., 1931
- 22.SamDU – Ўзбек тили грамматикаси, диалектологияси ва лексикологияси масалалари(СамДУ асарлари) Самарқанд, 1977
- 23.TDS – Туркмен ділінің сөзлугі , Ашгабат, 1952
- 24.ҮаUFD – Садвакасов Г. Язык уйгуров Ферганской долины, I-II т., Алма-Ата, 1970-1976
- 25.O‘zSHL–Ўзбек шевалари лексикаси(тўплам), тошкент, 1966
- 26.QTDM– Бегжонов Т. Қарақалпоқ тили диалектологиясининг мас‘алаларинен, Нокис: Қарақалпақстан, 1971 QTTS– Кеңесбаев С.Х. Қозак тілінің тусіндірме сөздігі, I т., Алмата –1959 Qo‘sh– Ишаев А. Қарақалпоғистондаги ўзбек шевалари.Тошкент, 1977II
- 27.Sol.- solishtiring, ozar.–ozarbayjon, tat.–tatar, qoz.–qozoq, qirg‘.–qirg‘iz, qq.– qoraqalpoq: S-D– Surxondaryo, Sho‘r.– Sho‘rchi, Qum.– Qumqo‘rg‘on, Boy.– Boysun, Pad.-Padang, Ink.-Inkobod, Kof.-Kofrun, Lay.-Laylagon, Xo‘j.- Xo‘jabulg‘on, Omonx.- Omonxona, Sar.- Sarqamish, To‘rt.- To‘rtko‘l, Ber.- Beruniy, Xo‘;. -Xo‘jayli.